

ӨЗБЕКСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ ЖОҚАРЫ ҲӘМ ОРТА  
АРНАҰЛЫ БИЛИМЛЕНДИРИҰ МИНИСТРЛИГИ  
БЕРДАҚ АТЫНДАҒЫ ҚАРАҚАЛПАҚ МӘМЛЕКЕТЛИК  
УНИВЕРСИТЕТИ



# «ТҮРКИЙ ФИЛОЛОГИЯНЫҢ АХМИЙЕТЛИ МӘСЕЛӘЛЕРИ»

*атамасындағы халықаралық илимий-теориялық конференция  
мақалалар топламы*

*(2-октябрь, 2021-жыл)*

*(Қарақалпақстан Республикасына мийнети сиңген илим гайраткери,  
филология илимлериниң докторы, профессор  
Абдиназимов Шамшетдин Нажимовичтиң 60 жыллық юбилейине  
бағышланады)*

НӨКИС  
«QARAQALPAQSTAN»  
2021

Савол-жавоб муносабати кўпинча диалоглар орқали ифодаланади. Бундай курилмаларда савол жавоб талаб қилади ва жавоб берилади, баъзан савол жавоб талаб қилади, лекин саволга мос жавоб берилмайди, нотўғри жавоб бўлиши мумкин:

– *Нашанг борми?*

– *Бор.*

– *Қитта бер - чи, (илтимос маъносида)*

– *Бераман, олдин айт, қачон уйлантирди?*

– *Туй ўтканда келибсан тентак. . .*

*Манга – чи, (таъкид маъносида) бир тоғора ош тегди.*

– *Бозордан ош олиб берсам ейсанми?*

– *Юзингга қачон чечак чиқди?* [13,155]

Бундай вақтда саволга жавоблар сўзловчининг прагматик билими орқали англашилади, натижада ифодада ихчамлик майдонга келади.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, киши рухий, ҳиссий ҳолатини, характерини, хулқ-атворини ифода этувчи прагматик воситаларнинг, кишининг мавқеи, ижтимоий ҳаётдаги ўрнини ифода этувчи экстралингвистик воситаларнинг лисоний ифодаларини танлаб ишлаиб, ўзининг теран ҳаётий мушоҳадага эга эканини кўрсатилган. У ўз асарида давр руҳини акс эттиришда, қаҳрамонлар тилини индивидуаллаштиришда, уларнинг рухий кечинмаларини беришда, касб-кори ва маънавий даражасини кўрсатишда, асосан персонажлар нутқида, қисман муаллиф нутқида бир неча ғоявий-бадий мақсадларда тилнинг махсус ресурслари (неологизм, диалектизм, вульгаризм, синоним, тарихий сўз шакллари, халқ тилига оид сўз, иборалар, фразеологизм) дан фойдаланади. Эмоционал баҳо элементларидан фойдаланган ҳолда образлар, воқеалар устидан ҳукми ифодалайди. Абдулла Қодирий романда новербал воситаларнинг лисоний ифодаларини танлаб ишлаиб, ўзбек тилининг прагматик имкониятлари, ўзбек халқининг нутқий этикетларини намоён этишда катта хизмат қилди.

## NUTQIY AXLOQ ME'YORLARI VA ILTIFOT

*N.Hamroyeva*

*Buxoro davlat universiteti*

Bugungi kunda tilshunoslikning antropologiya, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va boshqa bir qator boshqa fanlar bilan bog'liqligini o'rganish, tadqiqot ob'ektlari doirasini sezilarli darajada kengaytirish fan

oldida turgan asosiy vazifa bo'lib qolmoqda. Nutqiy etiket birligi va fatik muloqotning ko'rinishi bo'lgan iltifot – komplimentning xususiyatlari, uning turlari va bir qancha ijtimoiy-lingvistik vazifalari bugungi tilshunoslik oldida turgan masalalardan biridir.

Nutqiy axloq – murakkab hodisa, u inson tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Nutq odobi o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy guruh a'zosi sifatida insonning odatiy tarzda muloqot qilishi, unga tegishli bo'lgan barcha xususiyatlari hamda uning tug'ilgan va tarbiya olgan joyi, muhiti bilan bog'liqdir. Ingliz tilshunosi E.Sepir ta'kidlaganidek, odamlar o'zlarining ehtiyojlarini atrof-muhit bilan bevosita moslashtirishadi. «Ba'zida o'zgargan shart-sharoitlarga yaxshiroq moslashish uchun ham ijtimoiy axloq shakllarining zarurligini anglab yetish kerak» [2; 259]. Ijtimoiy axloq me'yorlari jamiyatda yashashning muhim shartlari hisoblanadi: ular odamlarning ijtimoiy, amaliy faoliyatlarini tartibga solib turadi. Har qanday jamiyatning hayoti, odamlarning jamoaviy faoliyatlarini tartibga solib turuvchi ijtimoiy me'yorlar va urf-odatlariga rioya qilmaslik imkonsizdir. Bunda, etiket qoidalariga birikkan urf-odatlar insonning tarixiy-ijtimoiy tajribasini saqlashning va yetkazishning qadimiy shakli hisoblanadi. Bu qoidalar ichida u yoki bu sivilizatsiyani birlashtirgan (masalan, Janubiy-Sharqiy Osiyo sivilizatsiyasi, zamonaviy G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika sivilizatsiyalari va boshqalar), butun insoniyatga yoki madaniy guruhlariga, yoki milliy madaniyatga (bu axloqiy me'yorlarning stereotiplariga asoslangan, masalan, «tipik ingliz», «tipik frantsuz» va h.z.), hamda submadaniy va sotsiolektlarga (ularga talaba yoshlarning, o'rta sinf namoyondalarining axloqlari va boshqa uslublar) tegishli me'yorlar mavjud. Axloqning o'ziga xos me'yorlari jamoaning nutqiy faoliyatining uslubida va muloqotning paralingvistik vositalar tizimida (mimika, imo-ishoralari va boshqalarda) namoyon bo'ladi.

Me'yor o'zida muayyan sotsiumda (statistik jihat) namunali deb qabul qilingan ifodalar shaklining majmuasini namoyon etadi. O'zining dinamik jihatida me'yor – tanlov operatsiyasi, lisoniy vositalarni jamoaviy qabul qilingan qoidalar asosida tanlovini tartibga solib turuvchi [1; 102]. Me'yor, «xushmuomalalik» tushunchasining talqinida tayanch nuqta hisoblanadi. Aynan, u muayyan muloqot vaziyatida so'zlovchining kommunikatsiyadan ko'zlagan maqsadi uchun afzal bo'lgan ifoda shaklini aniqlab beradi.

E.Koseriu, me'yorni «biror jamiyat va madaniyat tomonidan qabul qilingan, ...majburiy amalga oshirish (realizatsiya qilish) tizimi...», deb sharhlaydi. Uning kontseptsiyasida tizim tilning tarkibiy potentsiyasini aks ettiradi, me'yor esa – aniq amalga oshiriladi va jamiyatda qabul qilingan,

ya'ni me'yorni til tizimini amalga oshirishning an'anaviy barqaror majmuasi kabi tushunish lozim.

Mulozamat, iltifot – fatik muloqotning bir ko'rinishidir. «Mulozamat» tushunchasini rus tilshunosligida N.I.Formanovskaya (1989), O.S.Issers (1985), Serebryakova (2001); ingliz tilshunosligida V.I.Karasik (1992) va Ye.S.Petelinalar (1988) odobning namoyon bo'lishi hamda o'ziga xos etiket(xulq-odob)ning shakli sifatida baholaganlar.

L.E.Bezmenova «mulozamat» tushunchasini nutq odobining alohida kommunikativ darajasi deya talqin qilsa, Ye.S.Petelina «mulozamat» tushunchasiga laganbardorlikdan farqli ravishda samimiy maqto'v va hurmat mazmuni aks etganligi qayd etadi.

«O'zbek tili izohli lug'ati»da «Mulozamat» so'ziga quyidagicha izoh berilgan:»Mulozamat - [arabcha – birga bo'lishlik, ajralmaslik; birga ergashib borish; qat'iylik] Kishining ko'nglini olish uchun ko'rsatilgan iltifot; e'zoz-krom, takalluf» [5; 635].

Komplimentar ifodalar nutqiy etiketga tegishli, ammo barqaror xususiyatga ega emas, balkim muayyan muloqot vaziyatidan kelib chiqqan holda variatsiyalanadi. T.V. Sidorova ta'kidlaganidek, komplimentning (iltifotning) maqsadi – «so'zlovchiga nisbatan suhbatdoshning ijobiy reaksiyasini chaqirish va shu bilan bir qatorda keyingi muloqot uchun qulay muhitni yaratish» [3,37]. Iltifotni o'z ichiga olgan etiket mikrodialogi, idealda uch tarkibli modeldan tashkil topgan: Ishtirokchi A→Ishtirokchi B

Ishtirokchi A (iltifot ob'ekti) □ Ishtirokchi B (iltifot sub'ekti)

Ifoda etish stimuli □ javob

Iltifot (replikas, harakati) □ reaksiya

Nutqiy etiket birliklarini qo'llash sohasi, so'zlovchi jamiyatda qabul qilingan vaziyat interpretatsiyasini (sharhini) ifodalagan tipik vaziyatlar bilan chambarchas bog'liq. Kutilgan ifodani qo'llamaslik, hech qerda yozilmagan, ammo barchaga ma'lum qonuniyatlar asosida suhbatni davom ettirishga hohish yo'qligi yoki hattoki ko'rib ko'rmaslikka olish, suhbatdoshga nisbatan bo'lgan hurmatsizlik sifatida qabul qilinadi.

Navbatdagi vaziyatlar iltifotni amalga oshirish uchun odatiy hisoblanadi: ayol bilan uchrashganda qilingan iltifot (umuman uchrashuv vaziyati iltifotga xos hisoblanadi), uy bekasiga iltifot; agar siz xonadonda birinchi marta bo'lsangiz, unda kompliment uy, kvartira va h.z.lar uchun qilinadi; agar ayol yangi kuylakda yoki yangi soch turmagida kelsa, unda ayolga iltifot qilmaslik mumkin emas. Shu bilan bir qatorda iltifotlar qo'llanilishida chegara bilmaydi hamda boshqa nutqiy etiket birliklari kabi odatiy vaziyatlar bilan qat'iy bog'liq emas.

Xulosa qilib aytganda, iltifot – xulq-atvorning umumiy strategiyasi doirasida o'rganiladigan, insonga nisbatan ijobiy tuyg'ularni bildirishga yo'naltirilgan fatik muloqotdir. Iltifotning fatik vazifasi – nutqiy muloqot uchun umumiy yoqimli muhitini shallantirishdir. Shu sababli ham iltifot hamsuhbat tuyg'usi, fikri va harakatiga ta'sir ko'rsata oladi. Iltifot inson his-tuyg'ulariga ta'sir etadi. Shu bois uni suhbat muomalasiga ta'sir etuvchi «emotiv vosita» deb hisoblash mumkin bo'ladi.

## **«ҚОБЛАН» ДЭСТАНЫНДА АРХАЙКАЛЫҚ ДӘҒҒИРЛЕРДИҢ ИЗЛЕРИ**

***К.С.Палымбетов***

*Республикасы Халық билимлендириу хызметкерлерин қайта таярлау  
ҳәм олардың қәнигелигин арттырыу аймақлық орайы*

Қарақалпақ хәм қазақ халықларында «Қоблан» дэстаны жанры түринде қәлиплескен, ал башқурт, қырым, барабин татарларында ертеқ, аңыз түриндеги үлгилери бар. Илимпазлар тәрәпинен кең изертлеу объектисине айланып отырғаны дэстанның қарақалпақ, қазақ версиялары есапланады.

Дэстанның толық деп есапланған усы еки халық версиясын салыстырып, анализлеп қарағанда сюжетлик курамында бир яки еки дэғғирдиң ўақыясы емес, ал, бир неше дэғғирлердиң қатламы, ҳәр қыйлы заманлардағы тарийхий ўақыялардың елеслери сәўлелениўин тапқан.

Ертедеги адамлар «дүньядағы барлық нәрсениң жаны бар, олар да адам сыяқлы өмир сүреди, сөйлейди» деген түсиникте болған, олардың дүнья танымында анимистлик, тотемистлик сыяқлы көзқараслар қәлиплескен. Сол себепли де, алғашқы жәмийетте жасаған адамлардың санасында қәлиплескен дәслепки мифлик ұғымлар менен дәслепки сада мифлик ойлау хәм пикирлеулердиң излери қахарманлық эпослардың сюжетинде белгили дәрежеде өз сәўлелениўин тапқан. Мысалы, «Қоблан» дэстанында әўлиеге түнеу, аталар әрўағына сыйыныу, пирдиң түске аян бериуи, перзенттиң нышанын айтыу, батырдың илахийлик пенен туўылыуы, аттың сөйлеуи, Қызыр Ильяс пир, дәўлер, перилер т.б. буның айқын мысалы. Академик В.М.Жирмунский түркий тиллес халықларда кең таралған «Алпамыс» дэстанының версияларын салыстырып изертлеу нәтийжесинде қахарманлық дэстанлардың пайда болыуына батырлық ертеқ (богатырская сказка) тийкар болған [1:222] деген пикирге келген еди. Сонлықтан да С.Ю.Неклюдов, М.А.Унгицкая сыяқлы бир

Sh.Allaniyazova. Qaraqalpaq tilinde qospa gáplerdegi sintaksislik sinonimiya .....	72
Қ.Пахратдинов. Семантическая классификация каракалпакских этнонимов .....	74
Г.В.Тоирова. Ўзбек тили миллий корпусини яратиш – замон талаби .....	77
Д.Б.Жумаева. «Ўтган кунлар» романида қўлланган прагматик хусусиятлар.....	81
N.Namroyeva. Nutqiy axloq me'yorlari va iltifot .....	84
К.С.Палымбетов. «Қоблан» дэстанында архаикалық дәўирлердин излери.....	87
М.Б.Абдиев. Терминологиянинг долзарб масалаларига бир назар .....	90
Р.Р.Халилова. Виртуал коммуникатив дискурсе нутқий мулоқотнинг янги кўриниши сифатида.....	95
Г.Қурбаниязов. Мустақиллик йилларида қорақалпоқ тили ижтимоий вазифаларининг тараққиети .....	98
Г.Алламбергенова. Профессор Ш.Абдиназимовтың лингвокультурология: магистрлар ушын оқыў қолланбасы ҳаққында .....	102
Д.Қурбаниязов. Газета темаларында атаў гәплердин қолланылыўы.....	105
G.D.Dosjanova.T.Qayıpbergenovtıń «Qaraqalpaq dástanı» romanında janapaylardıń qollanıw ózgeshelikleri.....	109
К.А.Усупов. Qaraqalpaq prozasında milliy psixologiyanıń sáwleleniwı .....	113
Б.Т.Юсупова. Қарақалпақ тилиндеги сеслик уйқаслы айырым фразеологизмлердин трансформациясы .....	118
Д.Ержанова. Қарақалпақ тилинің терминологиялық сөзликлери ҳаққында.....	121
N.S.Novruzova. M.Қаşğarlı mätnlərində inkar anlamlarının ifadə formaları (Tarixi -müqayisəli təhlil).....	125
Т.Эназаров. Саксонкапа қишлоғи номининг маъно-моҳиятини биласизми? .....	131